



## TALABALARNING O`QUV-BILISH FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH

<sup>1</sup>Nasiba Botirova

Farg'ona davlat universiteti,  
o'qituvchi

[nasibaxon.botirova@gmail.com](mailto:nasibaxon.botirova@gmail.com),

<sup>2</sup>Matlyuba Alimjanova

Farg'ona davlat universiteti,  
o'qituvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7325495>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> November 2022

Accepted: 12<sup>th</sup> November 2022

Online: 15<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

Talaba, o'quv-bilish faoliyat,  
bo'lajak o'qituvchi, metod, usul,  
masala, o'qitish jarayoniga  
innovatsiya

### ABSTRACT

*Ushbu maqoladagi tadqiqot ishimizning maqsadi talabalarni bo'lajak kasbiy faoliyatiga tayyorlashda boshlang'ich sinflarda matematika darslarining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati, misol va masalalar yechishning maqsadi va vazifalari, matematika darslarida mantiqiy masalalarni ishlash metodlari va usullarini o'rgatish turlar tarkibini sistematik jihatdan o'rganish hamda talabalarning o'quv faoliyatlarini tashkil etishidan iboratdir.*

Mamlakatimizda ta'lim tizimining modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayoniga innovatsiyalarni tadbiq etish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining imkoniyatlari va ehtiyojlari nuqtai nazaridan ular uchun zarur va etarli shart-sharoitlarni yaratib berishni bugungi kun talab etmoqda.

Hozirgi kunda xalq ta'limi oldida ta'lim tarbiya samaradorligini oshirishning turli uslublarini takomillashtirish kabi ulkan vazifalar qo'yildi. Bu vazifa bevosita boshlang'ich maktabning ham vazifasi. Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, sog'lom hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hech qachon o'zining dolzarbligini yo'qotmaydigan masala hisoblanadi. Ta'lim samaradorligi

oshirishning turli yo'llari mavjud. Masalan: talimning turli uslublaridan unumli foydalanish, mazmunini qayta ko'rib chiqish, davr talabiga mos materialli tanlash, talim jarayonini tashkil etishning turli shakllaridan maqsadga muvofiq holda oqilona foydalana olish va xokazolar. O'quvchi o'quv faoliyatini faollashtirish bevosita o'qituvchi hamda o'quvchi faoliyatlarini to'g'ri tashkil etish va uni boshqarishga bog'liq.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bizga ma'lumki, masalaning ikkita muhim funksiyasi mavjud: masalaning bilish xarakteridagi funksiyasi, masalaning tarbiyaviy xarakteridagi funksiyasi. Masalalar yechish jarayonining o'zi metodikada o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum. U intellektual operatsiyalari, ya'ni analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraklashtirish, taqqoslash, umumlashtirish kabilarni rivojlantiradi.



Turmushda sonlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil hayotiy hisoblashlar vujudga keladiki, uni hal qilish uchun arifmetik amallar bajarishga to'g'ri keladi. Bunday hisoblash ishini talab qiladigan mazmun masala deyiladi. Har bir masala berilgan (ma'lum) va izlanayotgan (noma'lum) sonlarni o'z ichiga oladi. Masaladagi sonlar, to'plamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi,

#### **TADQIQOT MATERIALI VA METODIKASI**

Masalalar yechish avvalo talabalarda mukammal matematik tushunchalarni shakllantirishi, ularning o'quv dasturida belgilab berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida muxim ahamiyatga ega. Masala. O'quvchida 4ta rangli va 2ta oddiy qalam bor. O'quvchida hammasi bo'lib nechta qalam bor? Bu masala orqali o'quvchilarda qo'shish haqidagi tushunchani shakllantirish, mustahkamlash va yig'indini topishga doir bilimlar hosil bo'ladi.

Masalalar yechish orqali o'quvchilarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tadqiq qilinadi, shu orqali mustahkamlanadi. Masalan, bilimlarning shakllanishida nazariyani amaliyot bilan o'qitishni turmush bilan bog'liq olib borish imkonini beradi Masala yechish orqali xarid qilingan narsaning narxini, kvartira ta'mirlashning baxosi, poyezdga kechikmaslik uchun uydan qachon chiqish kerak, degan turli xildagi amaliy hisoblashlarni hal qilib beradi.

Munosabatlarni ifodalaydi yoki topilishi kerak bo'lgan noaniq sonlar bo'ladi. Xar bir masalada shart va saavol bo'ladi. Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan sonlar ora sida bog'lanish ko'rsatiladi, bu bog'lanishlar tegishli arifmetik amallarni

tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanini bildiradi.

Masala: Yengil mashina 3 soat yo'lda 60 km tezlik bilan yurgan. Mashina qancha masofa yurgan?

Sharti: Yengil mashina 3 soat yo'lda 60 km tezlik bilan yurdi (Ma'lum yoki berilgan).

Savol: Mashina qancha masofa yurgan? (izlanayotgan yoki noma'lum) masalani yechish: bu masala shartida berilgan sonlar va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishini ochib berish va shu asosida arifmetik amallarni tanlash, keyin esa ularni bajarish hamda masala savoliga javob berish demakdir.

Talabalar bo'lajak o'qituvchi sifatida o'quvchilarda masalani yechish usulini tanlashni o'rgatishda quyidagi usullarni bilishlari kerak:

Masala tahlili masala savolidagi berilganlarga qarab boradi:

1. Masalada nimani bilish talab qilinadi? (Kastyumga ketgan materialni).
2. Buni birdaniga bilib bo'ladimi? (Yo'q).
3. Nega? (Nechta kastyum tikilganini bilmaymiz).
4. Nechta kastyum tikilganini bilib bo'ladimi? (Bo'ladi).
5. Qanday qilib? (Nechta ko'ylak tikilgan bo'lsa shuncha kastyum tikilgan).  
Nechta ko'ylak tikilgan? ( 24 m materialning har 3 m dan bitta ko'ylak tikilgan bo'lsa,  $24:3=8$  ta ko'ylak tikilgan).
6. Kastyum ham 8 ta bo'lsa, har bira kastyumga 4 m dan material ketsa jami necha m material ketgan? ( $8*4=32$  m)
7. Masala savoliga javob berdikmi (ha)

#### **OLINGAN NATIJALAR**

Masalalar yechish matematika o'qitishning tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan turib matematikani o'zlashtirishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Matematikada masalalar yechilish nazariyani amaliyotga



tadbiq qilishning mutloqo tabiiy yo'lidir. Matematika masalalar yechishning u yoki bu nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi muhim ro'lini ta'kidlab, dasturda shunday deyiladi: «Natural sonlar arifmetikasi va nolni o'rganish maqsadga muvofiq masalalar va amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so'z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan, uning qo'llanilishini talab qiladigan u yoki bu masalani echish bilan bog'lanadi». Masala deb, tom ma'noda shunday savolga aytiladiki, uni yechish uchun berilgan sonlar va berilgan sonlar bilan izlangan sonlar orasidagi so'zlar bilan ifodalangan bog'lanishga ko'ra izlangan sonini topishga aytiladi.

Bunday masalalar turmushda va har qanday kasbda uchraydi. Hisob kitobga doir masalalarda amallar tanlash masalasi qiyin bo'lmaydi. Hisob kitobga doir masalalarning ikki xil ahamiyati bor, birinchidan bunday masalalarni yechish arifmetik amallarni bajarish malakalarini hosil qilishga yordam beradi. Ikkinchidan o'quvchilar arifmetika bilimlarini turmush tajribasidan kelib chiqqan masalalarni hal qilishga tadbiq qilishni o'rganadi. Hisob kitob masalalaridan tashqari matematik mazmuni murakkabroq bo'lgan masalalar ham yechiladi. Bunday masalalarning ko'pchilik qismi metod bilan, ya'ni tenglamalar tuzish va yechish bilan hal qilinadi. Arifmetik yo'l bilan yechish esa ziyraklik mulohaza qila bilishni, ozmi ko'pmi tasavvur qila bilishni diqqat qilishni, qiyinchiliklarni yengishda matonatli bo'lishni talab qiladi.

Bo'lajak oqituvchi oquvchilarga bilim berishda quyidagi maqsadlarga erishishni bilishi kerak:

1. O'quvchilar masalalar yechishar ekan, miqdorlar orasidagi bog'lanishni tushunishni, ular orasidagi munosabatni topishni tegishli amalni tanlashni o'rganadilar;

2. Masalalar shartlarida turmushdagi olingan materialdan foydalanish matematikani hozirgi zamon bilan bog'lashga mustaqil respublikamizning qurilish sohasidagi muvoffaqiyatlarimiz haqidagi o'quvchilarning bilimlarini aniqlashtirishga yordam beradi.

-masalalarda ko'pincha matematik tushunchalar, masalan, bo'lishning ikki turi ayirmali va karrali nisbatda orttirish va kamaytirish amallar qo'llanishning turli xil hollarni va hokazolar aniqlandi.

-masalalar yechishda u yoki bu amalning qo'llanishi matematik amallarni mustaxkamlaydi.

-atrofdagi turmushdan olingan masalalarni kishini maktabda olgan bilim asoslarini tushunishda ishlata biladigan qilib tarbiyalaydi.

-masalalar yechish matematika mashg'ulotlariga qiziqish va havas uyg'otishiga yordam beradi.

O'quvchilar sodda masalalar yechish bilan miqdor orasidagi bog'lanishni tushunishni va u yoki bu arifmetik amalni qo'llanishning turli hollarini ko'rsatib, sodda masalalar yechishni takrorlash foydalidir. qo'shish amali:

1. qo'shiluvchilar berilganda yig'indini topish.

2 berilgan sonni bir necha birlik orttirish kerak bo'lganda ishlatiladi. Ayirishda ikki sonning berilgan yig'indisi va qo'shiluvchilarning biri bo'yicha ikkinchi qo'shiluvchi (qoldiq) topiladi. Shuning uchun ayirish bilan 1-qoldiqni topishga doir masalar 2-sonni bir necha birlik kamaytirishga doir masalar yechiladi, bu



yerda izlangan qo'shiluvchi yig'indini topish uchun bir necha birlik (ayiriluvchi) qo'shiluvchi sonidir.

3. Sonning ayirmasini topishga doir masalalar (ayirmasini taqqoslash) echiladi. Bu erda kamayuvchini topish uchun noma'lum qo'shiluvchi berilgan qo'shiluvchiga (ayiriluvchiga) qo'shilgan. Butun songa ko'paytirish vositasi bilan quyidagicha masalalar yechiladi: teng qo'shiluvchilardan biri (ko'payuvchi) bo'yicha yig'indi (ko'paytma) topiladi; berilgan son (ko'payuvchi) ko'paytuvchida nechta birlik bo'lsa, shuncha marta orttiriladi. Ikki ko'paytuvchining ko'paytmasi (bo'linuvchi) va ko'paytuvchilardan biri bo'yicha bo'lish vositasi bilan ikkinchi ko'paytuvchi topiladi.

Butun songa bo'lishda izlangan ko'paytuvchi ko'paytuvchi bo'lishi mumkin, u holda bo'linuvchi butun son, bo'luvchi-butun son bo'linadigan teng bo'laklar soni, bo'linma teng bo'laklardan birining miqdoridir. Masalalarda bo'lishni qo'llashning ikkinchi holi bo'luvchida nechta birlik bo'lsa, berilgan sonni shuncha marta kamaytirishdan iborat. Sodda masalalarni yechishda amal tanlash markaziy va shu bilan birga eng qiyin masaladir. O'quvchilar sodda masalani echishda masala shartining mazmunini o'zlashtirib olib, izlagan son bilan 9 berilgan son qanday bog'lanishda ekanligini bilib olishlari va bunday masalani yechish uchun amallar tanlab olishlari kerak.

Murakkab masalalar yechish uni sodda masalalarga ajratish va uni shu sodda masalalarni yechishga keltiradi. Shuning uchun o'quvchilar sodda masalalar yechishni o'zlashtirib olganlaridan va etarli darajada hisoblash malakalari hosil

qilganlaridan keyingiga murakkab masalalar yechishni boshlash mumkin. Ma'lumki, sodda masalani yechish berilgan sonlar bilan izlangan sonlar orasidagi bog'lanishni topish va orifmetik amallar tanlashdan iboratdir.

Murakkab masalalar echishga kirishishdan oldin o'qituvchi bir qator mashqlar o'tkazishi kerak.

Bu mashqlar a) izlangan sonni aniqlash uchun savollar tuzish; b) qo'yilgan savolga javob berish uchun ma'lumotlar tanlash; v) masalaning savoliga javob topish uchun amallar ko'rsatishdan iboratdir.

Murakkab masalaning echimini quyidagi qismlardan iborat. (18). 1. Masalaning mazmunini o'quvchilar tushunib olish. 2. Masalani tahlil qilish va reja tuzish. 3. Masalani echish va rasmiylashtirish. 4. Yechishni tekshirish. Masalaning mazmunini o'zlashtirish uchun o'quvchilar bilan quyidagi usulni tajriba qilib ko'rish mumkin. O'qituvchi masalaning nomerini aytadi va o'quvchilarga masalaning shartini ovoz chiqarmasdan o'qib chiqishni shartini tushunib olishni buyuradi. Bu usul o'quvchilarni metoddan mustaqil foydalanishga o'rgatadi. Agar o'quvchi masalaning shartini masalalar to'plamidan mustaqil o'qisa, masalani ichida ikki uch marta o'qib chiqishni so'ngra kitobni yopib qo'yib, masala shartini takrorlashni buyuradi. Bunda o'qituvchi masalaning son ma'lumotini emas, balki asosiy mazmunini esda tutishni tavsiya qiladi. O'quvchilar shartlarni o'qishga va uni ichlarida takrorlashga va diqqat e'tibor berishlari uchun o'qituvchi masalaning shartini kitobga qaramasdan takrorlash 10 kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi. Masalaning shartini eslab qolish maqsadida uning tekstni o'qish o'quvchini masalaning mazmunini chuqurroq tushunib olishga



majbur qiladi. Bu esa o'z navbatida masalani to'g'ri yechishga yordam beradi.

### **XULOSA**

Psixologiya kursidan ma'lumki tafakkurni rivojlanishi shaxsning ijodiy faolligi orqali aniqlanadi. Chunonchi, masalalarni mustaqil yechishni tashkil qilish talabalarning mumkin bo'lgan aqliy qobiliyatlarini xotirasidan foydalanish imkonini beradi. Bundan masalarning yana bitta, favqulodda muhim funksiyasi kelib chiqadi. Masalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishik rivojlanadi. Masalalar talabalarning fikr doiralarni kengaytirishga yordam beradi,

ularni o'z shahrining, qishlog'ining hayoti bilan, kishilarning ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligidagi mehnatari bilan tanishtiradi. Yangi texnikani joriy qilish hisobiga yoki mehnatni yaxshi tashkil qilish hisobiga mehnat unumdorligini orttirish yurtimiz fuqolarini farovonligini oshirish, hukumatimizning bolalar haqida, ularning o'qishlari va dam olishlari borasidagi g'amxo'rligi kabi materiallarda tushuntiradi. Masalalar ustida ishlar ekan sistemali ravishda va rejali asosda o'quvchilarning xususiy malakalarini takomillashtirishni ham o'ylab ko'rish kerak, chunki bunday xususiy malakalardan masala yechishning umumiy murakkab malakasi tarkib topadi.

### **References:**

1. Kipchakova, Y. (2021). METHODOLOGICAL AND DIDACTIC ASPECTS OF INFORMATION AND INTELLECTUAL CULTURE IN THE EDUCATION OF A DEVELOPED GENERATION. Экономика и социум, (6-1), 156-159.
2. Kipchakova, Y. X., & Kodirova, G. A. (2020). INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION. Теория и практика современной науки, (5), 29-31.
3. KIPCHAKOVA, Y., ABDUXAMIDOVA, M., & RAXMONALIYEVA, M. THE IMPACT OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN IMPROVING STUDENT KNOWLEDGE. СТУДЕНЧЕСКИЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 37-38.
4. Қипчақова, Ё., Махмудова, М., & Умарова, З. (2021). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР МЕХНАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТИ. Студенческий вестник, (22-7), 9-10.
5. Қипчақова, Ё., Соибжонова, Ш., & Абдуқаюмова, С. (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ. Студенческий вестник, (22-7), 11-12.
6. Ботирова, Н. (2020). Обучающие возможности тестовых технологий. Профессиональное образование и общество, (3), 68-71.
7. Ботирова, Н. Д. (2019). РАЗВИТИЮ ПРОДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ. Гуманитарный трактат, (61), 4-6.
8. Ботирова, Н. Д. РАЗВИТИЮ ПРОДУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ DEVELOPMENT OF PRODUCTIVE THINKING OF YOUNGER SCHOOLBOYS. Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по гуманитарным наукам. Подробнее на, 4.
9. Djurabaevna, B. N., & Ibrokhimovna, T. S. (2020). Specific features of teaching mathematics in primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(8), 302-307.



10. Alimjanova, M. (2020). PEDAGOGICAL SYSTEM OF FORMATION OF RESPONSIBILITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE BASIS OF NATIONAL VALUES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 914-917.
11. Alimjanova, M. (2021). ABOUT GENDER STEREOTYPES. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(06), 72-76.
12. Alimjonova, M. Y. (2021). The role of the national values in the history of pedagogical education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1040-1044.
13. Shavkatovna, S. R. (2021). DEVELOPING CRITICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 97-102.
14. Vosiljonov, A. (2022). BASIC THEORETICAL PRINCIPLES OF CORPUS LINGUISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3(02), 173-175
15. Shavkatovna, S. R. (2021). Methodological Support for The Development of Primary School Students' Creative Activities. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 2, 121-123.
16. Shavkatovna, S. R. N. (2021). METHODOICAL SUPPORT OF DEVELOPMENT OF CREATIVE ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Conferencea*, 74-76.
17. Maxamadaliyevna, Y. D., òljayevna, ò. F., Qizi, T. D. T., Shavkatovna, S. R. N., & Anvarovna, A. O. (2020). Pedagogical Features Of Mental Development Of Preschool Children. *Solid State Technology*, 63(6), 14221-14225.
18. Jabborova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Экономика и социум*, (6-1), 129-132.
19. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO 'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.
20. Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 349-3
21. Sodirzoda, M. M. (2021). Ways to cultivate the creative thinking of beginners in the classroom through information and communication technologies. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 955-958.
22. Sodirzoda, M. M. (2021). Techniques of using folk proverbs in the cultivation of oral speech of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 481-484.
23. Sodirzoda, M. M. (2021). TO INCULCATE NATIONAL AND SPIRITUAL VALUES IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ETIQUETTE LESSONS. *Conferencea*, 31-32.
24. Турахўжаева, А., & Мухторий, М. (2018). СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ" СИСТЕМЫ" В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (5-4), 157-159.
25. Юлдашева, Д. М., Асқарова, Д., & Зоҳидова, М. (2021). Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
26. Джалолова, М., Раҳманова, Э. Ю., & Косимова, Х. Н. (2021). ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Scientific progress*, 1(6).



27. Косимова, Х. Н. (2021). КИТОБХОНЛИК КЎНИКМАСИНИ ШАКИЛЛАНТИРИШДА ОИЛАГА ПЕДАГОГИК ТАВСИЯЛАР БЕРИШ ТИЗИМИ. *Scientific progress*, 1(6).
28. Нажмиддинов, Э. Х., Кучбоев, А. Э., Мухаммадиев, М. А., & Соатов, Б. Б. (2021). Эколого-морфологические характеристики нематод рода *Rhabdochona*-паразитов обыкновенной маринки. *Теория и практика борьбы с паразитарными болезнями*, (22), 387-393.
29. Юлдашев, Э., & Нажмиддинов, Э. (2013). БРАКОНИДЫ (Hymenoptera, Braconidae) РОДА *ROGAS* NEES ФАУНЫ СРЕДНЕЙ АЗИИ. In *Биоразнообразие и рациональное использование природных ресурсов* (pp. 134-136).
30. Kuchboev, A. E., Najmidinov, E. K., Mukhamediev, M. A., Karimova, R. R., & Yildiz, K. (2021). Morphological and ecological features of some nematodes of the genus *Rhabdochona* in marinka obtained from Fergana Valley, Uzbekistan. *Journal of Parasitic Diseases*, 45(4), 1084-1089.
31. Vosiljonov, A. (2022). BASIC THEORETICAL PRINCIPLES OF CORPUS LINGUISTICS. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(02), 173-175.
32. Usmanov, N. (2021). The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People. *Oriental Journal of Social Sciences*, 1(1), 33-37.
33. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). OBRAZLAR TALQINIDA LINGVISTIK IMKONIYATLAR. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 3), 91-95.
34. Kalandarovna, Y. L. (2022). IDENTIFICATION AND EDUCATION OF GIFTED CHILDREN. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 42-47.
35. Dilafruz, A. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA VA OILADA GENDER XUSUSIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(18), 183-189.
36. Юлдашева, Д. М., Асқарова, Д., & Зоҳидова, М. (2021). Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 926-931.
37. Askarova, D. I. (2022). THE ROLE OF FOLK PEDAGOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 89-96.
38. Rahmonov, U., Ergashev, A., Nazhmetdinova, M., & Usmonova, S. (2021, November). IN THE FORMATION OF THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. In *Archive of Conferences* (pp. 36-39).
39. Karimovich, U. R., Mamasodikovna, N. M., & Abdullaevich, E. A. (2021). The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 2(2), 47-49.
40. Ulugbek, R. (2021, January). AN ANALYSIS OF WORDS WHOSE EMOTIONAL MEANING CHANGES IN MODERN ENGLISH LINGUISTICS. In *Euro-Asia Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 131-136).



41. Narziev, S., Asqarov, J., & Khokimyatov, A. (2021). Methodology Of Organization Of The Labor Process And Preservation Of Employees' Health. The American Journal of Engineering and Technology, 3(04), 79-84.
42. Asqarov, N. I. (2021). Prospects For The Development Of The Investment. The American Journal of Applied sciences, 3(01), 162-166.
43. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(2), 11-16.
44. Sobirovna, U. O. (2022). The Use of Mnemotechniques in Teaching Younger Schoolchildren. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 446-450.
45. Dilafruz, Y., Marifatxon, J., Rasuljonovna, E. Z., & Muqaddasxon, M. (2022). МАКТАВГАЧНА ТА'ЛИМГА YANGICHA YONDASHUV. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 3), 121-125.
46. Zhabborova, M. R. K. (2021). Мактабгача таълим соҳаси талабаларида бошқарувчанлик қобилиятларини ривожлантириш. Молодой ученый, (17), 394-395.
47. Мирзобоев, Й. А. (2022). ТУР ЎЗГАРИШ ЧИЗИҚЛАРИ УЧТА БЎЛГАН, ГИПЕРБОЛИК ҚИСМЛАРИНИНГ ҲАММАСИ ХАРАКТЕРИСТИК УЧБУРЧАКЛАРДАН ИБОРАТ БЎЛГАН БЕШБУРЧАКЛИ СОҲАДА УЧИНЧИ ТАРТИБЛИ КЎРИНИШДАГИ ПАРАБОЛИК-ГИПЕРБОЛИК ТЕНГЛАМА УЧУН БИТТА ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛА ҲАҚИДА. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(5), 363-366.